



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 25-mart, shanba,
36 (23.757)-son

**KUN
HIKMATI**

O'z nuqtai
nazariga ega
bo'lmagan, so'zlash
lozim bo'lganda
sukut saqlaydigan
odam kamtar emas,
loqayddir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov komissiyasining QARORI

O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazuvchi okrug komissiyalarini tuzish to'g'risida

"O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazuvchi okrug komissiyalarini tuzish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18 va 19-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 16-moddasiga muvofiq hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazuvchi okrug komissiyalari ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

Rais

Z. NIZAMXODJAYEV

2023-yil 23-mart

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining
2023-yil 23-martdagi 1214-son qaroriga ILOVA

O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazuvchi okrug komissiyalarining SHAXSIY TARKIBI (Samarqand viloyati bo'yicha)

7-SAMARQAND REFERENDUM O'TKAZUVCHI OKRUG KOMISSIYASI	
Raisi	
Toshev Farmon Isxakovich	"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini birlashgan tahririyati bosh muharriri
Rais o'rinbosari	
Yakubjanova Dilfuza Kodirovna	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali o'quv ishlari bo'yicha prorektori
Kotibi	
Toshniyozov Otabek Polvonovich	"Samarkand Kamalak invest tekstil" MChJ paxta to'qimachilik klasteri yuridik bo'lim boshlig'i
A'zolari	
Xusanov Diyor Sheraliyevich	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) Samarqand viloyati mintaqaviy vakili
Xakimov Umid Akobirovich	"Hunarmandlar" uyushmasi viloyati boshqarmasi boshlig'i
Negmatova Shaxzoda Shuxratovna	Samarqand davlat universiteti prorektori
Boboyev Sarvar Boltayevich	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Boyxurov Baxrom Eliboyevich	Viloyat bo'yicha g'aznachilik boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Sultanov Tulkinjon Ibragimovich	"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Samarqand filiali direktori
Muminova Gulrux Komilovna	"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini birlashgan tahririyati maxsus muxbiri
Ashurov Shaxobiddin Saidovich	Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori
Yarmuxamedova Nargiza Anvarovna	Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'quv ishlari prorektori
Mamatkulova Dilorom Xaydarovna	O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti mas'ul xodimi
G'afurova Zilola Xamidovna	Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Samarqand viloyati filiali boshlig'ining o'rinbosari
Okbutayev Oybek Xolmurotovich	viloyat moliya bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Uraqova Madina Toshpulatovna	Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti qoshidagi akademik litseyi direktorining ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
Rustamov Latif Botirovich	Viloyat sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Xankeldiyeva Feruza Musayevna	"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi viloyat bo'limi raisi
Urolboyev Bekzod Xalibayevich	O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi o'rinbosari
Saidmuratova Nargiza Uktamovna	A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi direktori o'rinbosari
Shukurova Nafosat Isomiddin qizi	Samarqand tumani 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

↓ Prezident qaroriga ko'ra

Jarimani erta to'lasangiz...

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 23-martda qabul qilingan "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2023-yil 1-maydan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qo'llanilgan jarimani ixtiyoriy to'lash tizimi yanada soddalashtiriladi.

Unga ko'ra:

- huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kun ichida jarima miqdorigina **50 foizini**, o'ttiz kun ichida **70 foizini** ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u **jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi**;

- mazkur tartib sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Sud va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish sohasida suiiste'molchiliklarning oldini olish hamda fuqaro va tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni hal etish maqsadida Majburiy ijro byurosi tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarimaning miqdori ijro hujjati-da undirilishi belgilangan summadan yuqori bo'lishi mumkin emas.

2023-yil 1-sentabrdan boshlab:

a) sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining "Tezkor ma'lumotlar" yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladi;

b) sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotnomaga sudlanganlik muddati tugagan yoki sudlanganlik olib tashlangan sananing ertasidan kechiktirmasdan tegishli shaxsning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinetiga avtomatik ravishda bepul yuboriladi.



KASHTALARda AN'ANALARIMIZ AKS ETADI

Samarqand shahrida "Milliy kashtachilik" II milliy kashtachilik respublika ko'rgazma-savdosini bo'lib o'tdi.

Unda yurtimiz hamda Turkmanistonning Ashxobod shahrida kashtachilik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan 60 nafardan ziyod hunarmand 200 xil tikuvchilik mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

- Mazkur tadbirning bu yilgisi Samarqandda o'tkazilishida o'ziga xos ma'no bor, - deydi "Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Umid Hakimov. - Chunki Samarqand ko'hna shahar va boshqa hududlar singari milliy urf-odat va qadriyatlarini ham bag'riga singdirgan. Qolaversa, viloyatning har bir hududida o'ziga xos milliy kashtachilik an'analari mavjud. Ko'rgazma davomida hunarmandlarimiz mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan kelgan kashtado'zlar bilan o'zaro fikr va tajriba almashdi.

Ko'rgazmada Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona kashtachiligi bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar va ularning mahsulotlariga

qiziquvchi va xaridorlar ko'p bo'ldi.

- Biz ko'rgazmaga Buxoro viloyati Shofirkon tumanidan keldik, - deydi kashtado'z Oliy Nurullayeva. - 25 yildan buyon kashtachilik bilan shug'ullanib kelaman. Mana, qo'lmda tumanimizning qadimiy qalampir nusxalari tasviri tushirilgan alaf kashtalari. Ulardan qadimdan uy peshtog'larini bezash uchun foydalanishgan. Bo'lajak kelinlar o'z qo'llari bilan bunday kashtalarni tikib, nimalarga qodir ekanliklarini ko'rsatishgan. Hozirgi kunda bu kashtalarimizga xorijlik mehmonlar ham xaridor. Mana buni qarang, tikilganiga 70 yil bo'lgan qadimgi paranjini shogirdlarim yangicha uslubda tayyorlashdi. Tumanimizda bu kabi qadimiy kayvoni momolarimizdan qolgan hunarmandchilik buyumlari bisyor. Muhimi, biz ularni topib, mehr bilan qayta ishlayapmiz va tiklayapmiz.

Ko'rgazma davomida urgtulik Mavluda Hamdamova, ashxobodlik Liliya Hayitova, Samarqand shahri Nafisa Shokirova tomonidan mahorat darslari va uchrashuvlar o'tkazildi.

Akram BO'RIYEV.

Mirzo Ulug'bek va Gagarin ko'chalari chorrahasida

tonnel qurilishi boshlandi



Abu-Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Samarqand shahri infratuzilmasini modernizatsiya qilish" investitsiya loyihasi bo'yicha shaharning Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida qazish ishlari olib borilib, uzunligi 44 metr bo'lgan tunnel qurilishiga kirishildi.

Mazkur loyiha "Me'mor Utkir Chovka LLC" (O'zbekiston) va "Shaanxi Road and Bridge Group Co., Ltd" (Xitoy) - konsorsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hozirda chorrahada bosqichma-bosqich elektr energiyasi hamda aloqa tarmoqlarini ko'chirish ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda chuqurligi 5 metr, eni 190 santimetr bo'lgan handaq qazilib, suv oqova tarmoqlarini o'tkazish uchun beton quvurlar tashlanmoqda.

- Qurilish ishlarida 5 nafar xitoylik va turkiyalik malakali mutaxassislar ham yaqindan yordam bermoqda, - deydi loyihaning texnika xavfsizligi bo'yicha muhandisi Alisher Umetov. - Hozirgacha 170 metrdan ziyod masofadagi

eski kommunikatsiya tarmoqlari xavfsiz hududga ko'chirildi.

Ob'yektda viloyat hududiy elektr tarmoqlari korxonasi, "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali, "Samarqand suv ta'minoti" MChJ mutaxassislari o'zlariga belgilangan hududlarda mehnat qilishmoqda.

Asosiy qazish va kovlash ishlari Toyloq tumanidagi "Shuhrat Qambarov gaz servis" xususiy korxonasi ishchilari zimmasiga yuklatilgan.

- Hududni tozalab, handaq kovlashda yer ostida ko'milib ketgan, biroq ayni paytda ishlab turgan kommunikatsiya va oqova, elektr energiyasi tarmoqlarini chiqarib olish biroz qiyin bo'lmoqda, - deydi "Shuhrat Qambarov gaz servis" xususiy korxonasi rahbari Sh.Qambarov. - Ammo maxsus texnikalar va tajribali mutaxassislar yordamida bu ishlarni amalga oshirib kelayapmiz.

Dilmurod TO'XTAYEV,
Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.

TAYINLOV



Norboyev Alisher Erkinjon o'g'li

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Tayinlovga qadar A.Norboyev viloyat hududiy innovatsion rivojlanish boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

1-modda.

O'zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.



KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

1-modda.

O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

KO'P QAVATLI UYNI TARTIBLI SAQLASH

UNDA YASHOVCHILARNING O'Z QO'LIDA

Yurtimizda asosan 1956-yildan boshlab 2, 3, 5 qavatli uylar qurilishi boshlangan. Ayniqsa, qishloqlarni kichik shaharlarga aylantirish maqsadida hatto xo'jalik markazlari va qishloqlarda ham iftsiz, past shiftli, kichik xonalardan iborat "xrushovka" uylar qurish uy olgan. Bugungi kunda viloyatimizda ham minglab aholi xuddi shunday ko'p qavatli uylarda istiqomat qiladi. Yiliga o'nlab shu kabi binolar "snos"ga tushib buzilib, o'rnida barcha qulayliklarga ega zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilmoqda.



Samarqand tumanidagi 75 ta ko'p qavatli uyda qariyb 6 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarigacha qurilgan 50 tadan ziyod ko'p qavatli uy asosan tuman markazi Gulobod shaharchasida, shuningdek, Parrandachilik, Xo'ja Ahrori Vali, Qaynama, Mirzo Ulug'bek mahallalarida joylashgan. Ularning aksariyatida oshxona, yuvinish xonalari va hojatxonalar allaqachon yo'q bo'lib ketgan. Aksariyat aholi uy ichidagi sharoitni o'zlariga moslashtirib, hojatxona, omborxonalar, ichimlik suvi kabi qulayliklarni hovlida qurib olishgan. Isitish tizimlari yo'qligidan sovuq kunlari burjuyka pechlarini qurib, jon saqlaganlar ham bor. Ikki yil ilgari Yangi-joy mahallasidagi Gazchilar guzarida 4 ta ko'p qavatli uy qurilib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, ayni paytda yana 2 ta ko'p kvartirali uy-joylarning so'nggi pardoqlash ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq bu uylar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga a'zo bo'lishmagan. Eng qizig'i, yangi uylarga raqam berilmagan, hatto uy egalari ham qaysi kvartirada yashab kelayotganini bilmaydi. Uylarni doimiy nazoratda saqlab turadigan "domkom"lar ham tayinlanmagan.

Hududimizda mustaqillik yillarigacha qurilgan bir nechta eski uylar bor, - deydi Yangi-joy mahallasi raisi Baxtiyor Yo'ldoshev. - Yana yangi uylar qurilmoqda. Joriy yilda ham o'nga yaqin 5, 7, 9 qavatli uylar quriladi. Lekin hali boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etilmaganligi sababli ularni boshqarish quruvchilar zimmasida turibdi. Joriy yilda ayrim uylarning tomlaridan chakka o'tib, oqova tizimlaridagi kamchiliklar tufayli yerto'lalarga suv kirib ketdi. Yana bir gapni aytmasam bo'lmas.

Uylarning ko'pchiligining egalari yashamaydi. Qishda bu yerga kelib, yozda yana hovlilarga chiqib istiqomat qilishadi. Ayrimlar ijara topshirib ketadi. Tabiiyki, ijarchilar o'zlariga bilganidek yashab, chiqindilarni derazadan uloqtiradi yoki kanalizatsiya quvurlariga tashlaydi.

Massivdagi yangi uylarda elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi hamda kanalizatsiya bilan bog'liq qator muammolar bor ekan. Bunga asosiy sabab ularni o'z vaqtida bartaraf etadigan birorta boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etilmaganligidir.

- Yangi uyga ko'chib chiqqanimizga ko'p bo'lmadi, lekin kamchiliklar ko'p ekan, - deydi shu uyda yashovchi D.Asadov. - Elektr va tabiiy gazdagi muammolarni aytmayin, ularga o'rganib qolganmiz. Biroq oqova suv tizimidagi kamchiliklarni aytmasam bo'lmas. Yaqinda yerto'lalarga suv tushib, xaxi uylarimizgacha ko'tarildi. Ma'lum bo'lishicha, pudratchi korxonalar santexniklari kanalizatsiya quvurlarini noto'g'ri o'rnatgan ekan. Bir necha bor tuman hokimligiga, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qildik, foydasi bo'lmadi. Nihoyat mardikor yollab, kamchiliklarni bartaraf etdik. Birorta shirkatni yo boshqaruv servis xizmati kompaniyasini tashkil etilsa, bajonidil a'zo bo'lardik.

Bolalar maydonchasida yaqin orada bolalar o'ynaganga o'xshamaydi. Chunki ayrim o'yin jihozlari va o'rindiqlar singan.

- Shirkat va uy boshi yo'qligi sababli maydoncha qarovsiz qolgan, - deydi raqamsiz uylardan birida yashovchi Tohir Murodov. - Nabiralimiz bog'cha va maktabdan qaytib kelgach, qayerda vaqt o'tkazishini bilmaydi. Sport maydonchasi va jihozlari yo'q. O'yin qurilmalari yo'qligi sabab bolalar boshqa hududlarga ketib qolishadi. Bir necha bor singan qurilmalarni o'zimiz payvandlab, tikladik, lekin ko'p o'tmay yana ishdan chiqadi.

Yangi uylar atrofiga savdo do'koni, oshxona, sartaroshxona, telefon sozlovchi ustaxona, novvoyxona kabi kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan qulayliklar yo'q. Biror nima zarur bo'lsa, qo'shni guzarga yoki tuman markaziga borib, ishni bitirishga majbur bo'lishar ekan.

Eng qizig'i, yangi uylarning tepasidan tushgan novlari noto'g'ri o'rnatilganligi tufayli yomg'ir suvlari beton ariqchalarga tushmaydi.

- Yomg'irlar mavsumida yo'laklar oldi ko'lab, o'tib bo'lmay qoladi, - deydi shu yerda yashovchilardan biri. - Suv tushib ichkariga kirib ketgan paytlari ham bo'ldi. Kanalizatsiya qudug'i ham noto'g'ri o'rnatilgan.

- Ikki yil davomida uylarda qanaqa muammo paydo bo'lgan bo'lsa, barchasini bartaraf etib kelyapmiz, - deydi "Bunyod-

kor" MChJ ish boshqaruvchisi Ali-sheer Islomov. - Hozir shu hududda yana ikkita ko'p qavatli uy quryapmiz. Ayni paytda suvoq ishlarni bajarayapmiz. Yangi uylardagi kamchiliklardan xabarim yo'q edi. Tez kunlarda barcha muammolarni ijobiy hal qilib, obodonlashtirish ishlarni ham amalga oshiramiz.

Tumandagi Parrandachilik mahallasida joylashgan 21 ta ko'p qavatli uyning 7 tasi so'nggi uch yilda qurib, foydalanishga topshirilgan.


O'tgan yili qurilgan 3 ta 5 qavatli uyda 60 oila istiqomat qilmog'da. Biroq mazkur uylarda yashovchilar ham birorta mulkdorlar shirkatiga a'zo bo'lgan emas. Shu sababli paydo bo'lgan muammolarni uylarda yashovchilarning o'zlar hal qilishmog'da.

- Yaqinda viloyat hokimi kelib, aholing yashash sharoitlarini o'rganib, obodonlashtirish borasida katta yordam berdi, - deydi Parrandachilik mahallasi raisi Manzura Mahmudova. - Yuz kishilik to'y-marosimlar o'tkazish uchun usti yopiq maydon qurish bo'yicha bergan topshirig'i bajarilmoqda. Haftaning payshanba kuni "Maroqand Obod" MCHJ mashinalari kelib, chiqindilarni tashib ketishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, barcha uylar markaziy kanalizatsiya tarmog'iga ulangach, bu boradagi muammolar barham topdi.

O'tgan yili yangi qurilgan uylarning yerto'la qismidan bir nechta kam ta'minlangan oilalarga, nogiron va beva ayollarga moslashtirib ham yashash xonalari ajratilib berilgach, bu boradagi muammolar ham ijobiy yechim topdi.

Bugun hududlarda qurilayotgan ko'p qavatli uylarda yashovchi aholing yashash tarzini yaxshilash, har bir uyni tartibli, obod maskanga aylantirish ularning o'z qo'llarida. Buning uchun tuman hokimliklari va mas'ul tashkilotlarning birozgina e'tibori bo'lsa bas.

Dilmurod TO'XTAYEV.



HUQUQIY MASLAHAT
XUSUSIY KLINIKA BEPUL XIZMAT QILMAYDIMI?
Qaysi toifadagi shaxslar xususiy pullik tibbiyot muassasalarida tibbiy xizmatni bepul olsa bo'ladi?

D.ASQAROV, Ishtixon tumani.

Tegishli hujjatga ko'ra, xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan aholing quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatmlariga (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar;
- I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;
- muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar;
- ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar;
- yetim bolalar va ota-onaga qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;
- 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- 1941-1945-yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari;
- qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan boshqa shaxslar.

Xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun ularning shaxsini va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga mansubligini tasdiqlovchi hujjatlarining mavjudligi asos bo'ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko'rsatiladigan bepul tibbiy xizmatlarning turlari va hajmi tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyada ko'rsatilgan ixtisosliklar doirasida tashxis qo'yish va davolash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

FARZANDLIKKA OLISHDA ...

Bola asrab olmoqchiman. Qayerga murojaat qilishim kerak?

Z.NORBOTIROVA, Jomboy tumani.

Bolani farzandlikka olish sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar jumlasiga kiradi.

Shu sababli farzandlikka olish to'g'risidagi ariza bolani farzandlikka olishni istagan fuqarolar tomonidan farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga beriladi.

O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishni istovchi Respublika hududidan tashqari doimiy yashayotgan fuqarolarimiz, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar farzandlikka olish to'g'risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar yoki Toshkent shahar sudlariga beradi.

Arizaning mazmuni va unga ilova qilinadigan hujjatlar Fuqarolik protsessual kodeksida batafsil ko'rsatib o'tilgan.

SUBSIDIYA OLMOQCHISIZ?

Aholing muhtoj toifasiga qaytarilmaydigan qarz, ya'ni subsidiya berilarkan. Buning uchun kimga yoki qayerga murojaat qilsam bo'ladi?

B.ERNAZAROVA, Kattaqo'rg'on shahri.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan hududiy boshqarma, yetkazib beruvchi tashkilot va tomorqa yer egalari o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida quyidagi maqsadlar uchun subsidiyalar ajratiladi:

- yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorida;
 - sug'orish vositalari xarid qilish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida;
 - urug'liklar va ko'chatlar sotib olish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha miqdorida.
- Ishsiz, kam ta'minlangan yoki kambag'al oilalar a'zosi bo'lgan tomorqa yer egasi yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish yoki urug'liklar, ko'chatlar yoxud sug'orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratish bo'yicha tavsiya berishni so'rab doimiy yashash manziliidagi hokim yordamchisiga murojaat qilishi lozim.

Savollarga viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i Orif MUHAMMADIYEV javob berdi.



Jomboy tumanidagi "Ahadov Muza'ffar-Fazliddinov" fermer xo'jaligi tasarrufidagi 35,3 gektar yer maydonida urug'lik g'alla, pomidor va piyoz yetishtiriladi. Olingan daromaddan 60 million so'm sarflanib, 300 metrga 11 ta temir-beton ustun o'rnatilib, elektr tarmog'i tortildi. Bu yilgi daromaddan esa maydonlarda suv tejavchi texnologiyalar joriy etish rejalashtirilgan.

- Ekinlarni tomchilatib sug'orish hosildorlikni 15-20 foizga oshiradi, - deydi xo'jalik rahbari Fazliddin Ilyosov. - O'rganishlarga ko'ra, birgina g'alla maydonining gektaridan 500 litrgacha suvni iqtisod qilish mumkin ekan, albatta bu hosildorlikka ham ijobiy ta'sir qiladi. Qolaversa, xarajatlar ham kamayadi. Bu usul xo'jaligimizga har tomonlama foydali bo'ladi.

O'tgan yili fermer xo'jaligimizda 220 tonna pomidor, 260 tonna piyoz yetishtirildi. Bu yil ham ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash harakatidamiz.

Nishon MELIYEV olgan surat.
Suratda fermer xo'jaligi rahbari Fazliddin Ilyosov.

O'tgan yil viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati jamoat tartibini saqlash boshqarmasi hamda uning quyi tizimlari tomonidan viloyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, viloyat hududida 21333 ta omma-viy, jumladan, 1463 ta ijtimoiy-siyosiy, 1587 ta madaniy, 928 ta sport va 17355 ta turli tadbirlarda jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligi to'laqonli ta'minlangan.

SAMARQANDDA TILANCHILIK QILAYOTGANI UCHUN

4200 SHAXSGA MA'MURIY BAYONNOMA RASMIYLASHTIRILGAN

Viloyat IIB JXX JTSB bo'linmalari saf bo'linmalari patrul-post xizmati bataloni shaxsiy tarkibi tomonidan shaxsan fosh etilgan jinoyatlar uchun 289 nafar xodim pul mablag'lari bilan rag'batlantirilgan.

Umuman, viloyat IIB patrul-post xizmati batalon xodimlari ishtirokida 2022-yil davomida 97 ta, ya'ni 2021-yilga nisbatan 24 ta ko'p jinoyat aniqlangan. Shundan, 75 ta jinoyat shaxsan ochilgan. Bundan tashqari, PPX bataloni xodimlari tomonidan 57 nafar qidiruvda yurgan, 6 nafar bedarak yo'qolgan shaxslar aniqlangan.

Ko'cha va jamoat joylaridan huquqbuzarlik sodir etganligi yoki shubha uyg'otganligi uchun 184 ming nafar shaxs olib kelingan. Jumladan, 173250 nafar gumondor, 4200 nafar tilanchilik bilan shug'ullanib yurgan, 229 nafar ish va yashash joyi noaniq bo'lgan, 176 nafar yengil tabiat ayollarga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzilgan.

"CHIN DO'ST" LAR YORDAMIDA...

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda kinologiya xizmati ham muhim o'rin tutadi. Shu bois boshqarmaning mazkur xizmati 2022-yilda 1013 marta viloyat hududida o'tkazilayotgan omma-viy tadbirlarga jalb etilgan.

144 ta jinoyat xizmat itlari yordamida fosh etilgan. Jumladan, 9 ta qotlilik, 13 ta o'g'rilik, 1 ta talonchilik, 12 ta gijohvandlik jinoyatlari issiq izida ochilgan.

Xizmat itlari yordamida 8431 gramm gijohvand moddalari daliliy ashyo sifatida olingan.

MA'MURIY HUQUQBUZARLAR UCHUN QAMOQ BOR

Viloyat IIB JXX JTSBda ma'muriy tartibda qamoqqa olingan shaxslarni saqlashga mo'ljallangan 60 nafar sig'imga ega maxsus qabulxonada mavjud. 2022-yilda bu yerda 5655 nafar ma'muriy qamoqqa olingan shaxs saqlangan.

Sodir etilgan huquqbuzarliklar tahlil qilindanda



eng ko'p ma'muriy qamoqqa olinganlar (2978 kishi) jinoyat kodeksining 183-moddasi (mayda bezorilik) bilan aybli, deb topilgan.

Ya'ni, ularning aksariyat jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi boshqa xat-ti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik holati bo'yicha maxsus qabulxonada saqlangan.

O'tgan yili maxsus qabulxonada shuningdek, 187-modda - jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilishda aybli, deb topilgan 358 (2021-yilda 210) kishi sud tomonidan tayinlangan jazo muddatini o'tagan.

Darvoqe, "Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash xarajatlarini undirish to'g'risida"gi Qonunga asosan, sud idoralari tomonidan ma'muriy qamoq jazo belgilangan fuqarolardan 2091213 ming so'm undirilishi belgilangan.

IIB JXX JTSB axborot xizmati.



XITOIY **IKKI O‘T**
ORASIDA

Yaqinda Xitoy parlamenti – butunxitoy xalq vakillari majlisi bir ovozdan Si Jinpinni rais, ya’ni, uchinchi marta qayta prezidentlikka sayladi. Bultur oktabr oyida u Xitoy kommunistik partiyasining bosh kotibi va markaziy harbiy gengash raisi etib ham saylangandi. Shu taxtil, marhum darg’a Mao Sze Dundan keyin birinchi marta mutlaq hokimiyat yana bir kishining qo’lida to’plandi. Bu bilan buyuk islohotchi Den Syaopingning hokimiyat almashinuviga doir yo’l-yo’riqlari qo’pol ravishda buzilib, raislikning o’n yillik chekloviga chek qo’yildi. Ma’lumki, Den Syaoping ham o’n yil raislik qilganidan so’ng “Xitoy mo’jizasi”ni yaratgan bo’lsa ham, lavozimidan iste’fo bergandi. Ammo o’rtog’i Si 2018-yilda Xitoy konstitutsiyasiga o’zgartish kiritib, o’zini umrbodlik rais deb e’lon qildi. Buning yaxshi yoki yomon tomonini tarix tajribasiga nazar tashlab bilib olish mumkin. Bir arbobning taxtda uzoq qolib ketishi hech qachon, hech kimga yaxshilik keltirmagan, hatto o’sha arbobning o’ziga ham. Masalan, Xitoyda uzoq yillardan buyon 8-10 foiz o’sib kelayotgan YaIM (yalpi ichki mahsulot) miqdori 2022-yilda 3 foizga tushib qoldi. Albatta, buni kovid pandemiyasi oqibatlari bilan ham izohlash mumkin. Ammo jahonning ko’pgina rivojlangan mamlakatlari inqirozdan muvaffaqiyat bilan chiqib ketishdi. Dunyo iqtisodiyotning qariyb 20 foizini tashkil etishga ulgurgan Xitoyning bu borada oqsab qolishi global muammolarni keltirib chiqarishi mumkin ekanligi hozir G’arb dunyosini ham tashvishlantirmoqda.

Ikkinchi yana bir muammo siyosiy maydonda ham ko’rinib qoldi. Rossiya-Ukraina urushi xitoyliklarni mushkul vaziyatga tushirib qo’ydi. Rossiya tomonida turish ayirmachilikni qo’llab-quvvatlashni anglatar edi. Holbuki, Xitoyda ham separatizm xavfi mavjud ekanligi sir emas. Bunga Tibet, Sharqiy Turkiston, Tayvan va Gonkong ayirmachiligini misol qilib ko’rsatish mumkin. Ukraina tomonida turish esa avtoritarizm kushandasi bo’lmish demokratiyaning yonini olish bilan barobar bo’lardi. Tabiiyki, hech kim o’zi o’tirgan shoxni kesish darajasida ahmoq emas. Shu ma’noda, Xitoy bu boradagi oraliq yo’lni tanladi, ya’ni, betaraflik tomonida turibdi, ammo buning qachongacha davom etishini hech kim bilmaydi.

Agar o’tgan yilgi voqealarni eslasak, Rossiya armiyasi Ukrainaga bostirib kirib, katta hududini zabt etgan kunlarda biridanga Xitoy bilan Tayvan orasidagi munosabatlar ham keskinlashib qoldi. Hatto Xitoyning Tayvanga bostirib kirish ehtimoli paydo bo’ldi. Ammo AQShning bu boradagi qat’iy siyosati Pekinni qaltis qadamdan tilyilishga majbur qildi. Ukrainada Rossiya armiyasining olgan qattiq zarbasi xitoylik ayrim urush ishqibozlari piligini birmuncha pasaytirib qo’ydi. Bugungi kunda shu narsa ma’lum bo’ldiki, har qanday urush bu boshi berk ko’chaga kirib qolish bilan teng ekan. Bultur shu kunlarda rossiyalik ayrim siyosatdonlar bir hafta ichida Ukrainani egallab, 9-may kuni Moskvada g’alaba paradini o’tkazishni rejalashtirgandilar. Mana, oradan bir yil o’tdiki, hamon g’alabadan darak yo’q. Ak-sincha, ukrainalik vatan himoyachilari kundan kunga rus armiyasining sillasini qurita bormoqda. Bu esa xitoylik urush ishqibozlariga yaxshi saboq bo’ldi deb o’ylaymiz.

Xitoy ma’murlari bunday qaltis qadamdan tiyib turgan yana bir omil shundaki, mamlakat iqtisodiyoti bugungi kunda G’arb, Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvan bilan chambarchas bog’lanib qolgan. Xitoy sanoati zamonaviy texnologiyalarga va G’arb mamlakatlardan keltiriladigan jihozlariga juda muhtoj. Masalan, yo’lovchi samolyotlar, raqamli dastgohlar va yarimo’tkazgich chiplarning deyarli barchasi AQSh va Yevropadan keltiriladi. Bu borada Rossiya bilan hamkorlikda zamonaviy samolyot yaratishga bo’lgan urinish to’liq muvaffaqiyatsizlikka uchrardi. Mabodo, Xitoy ham Rossiyaga o’xshab G’arbnning iqtisodiy sanksiyalariga duch kelsa, buning oqibatlarini o’n, balki yuz barobar og’ir bo’lishi mumkin.

Xitoy xorij madadiga nafaqat sanoat sohasida, balki boshqa jabhalarda ham bog’lanib qolgan. Jumladan, oziq-ovqat sohasidagi bog’liqlik juda ham yuqori. Xitoy

import qiladigan cho’chqa go’shtining 77 foizini, mak-kajo’xorining 70 foizini, donning 66 foizini va go’shtning 56 foizini G’arb mamlakatlardan sotib oladi. G’alla bo’yicha, ayniqsa, AQSh va Kanadaga juda qaram. Bu ikki davlatga barcha importning yarmidan ko’pi (52 foiz) to’g’ri keladi. Sut, sut mahsulotlari va tuxumning 94 foizi G’arb mamlakatlari hamda Yangi Zelandi-yadan keltiriladi. Shu ma’noda, xalqaro ekspertlarning fikrlariga ko’ra, Xitoy G’arb mamlakatlari bilan aloqasi yomonlashuvidan umuman manfaatdor emas. Ikkinchi tomondan, yuqorida yozganimizdek, Rossiyaning kelajakda demokratik mamlakatga aylanish ehtimoli xitoylik ma’murlarni hazilakam cho’chitmayapti. Mabodo Ukraina bog’lub bo’lib, Yevroosiyo ittifoqi deb atal-mish yangi saltanat tiklangudek bo’lsa, avtokratik dunyo qayta tiklanib, umrbodlik hukmdorlarning davru davroni yanada cho’zilar edi.

Shu sabab bo’lsa kerak, Xitoy bu mojaro nima bilan tugashini kutishdan o’ziga biror-bir chora topolmayapti. Hozir jahon siyosat maydonidagi vaziyat o’tgan asrning 30-yillardagideki siyosiy holatni eslatmoqda. O’shanda ham, Birinchi jahon urushi natijalaridan norozi bo’lgan gitlerchilar Germaniyasi jahonni qayta taqsimlash yo’lida butun dunyoni qonli muhorabaga tortgandi. Bugun ham “sovuq urush” natijalaridan norozi bo’lgan Putin Rossiyasi jahonni atom urushi yoqasiga yetak-lab keldi. Hozir ularni faqat G’arb mamlakatlarning prinsipi qat’iy qarorigina bu qaltis yo’ldan qaytarib turibdi. Ya’ni, maxsus aloqa tizimi orqali, agar Moskva ommaviy qirg’in qurollarini qo’lga olishga bo’lsa, NATO kuchlari Ukrainaga kiritilishi va Rossiyaning Qora dengiz floti batamom tor-mor etilishi haqida ochiq ogohlantiril-gan. Bu esa Rossiyaning davlat sifatida saqlanib qolish ehtimolini keskin kamaytirib yuborishi mumkin. Ma’lumki, Ikkinchi jahon urushidan so’ng dunyo mamlakatlari orasida yangi siyosiy tartib shakllangandi. Bu me’yor 1975-yildagi Xelsinki shartnomalari asosida mustah-kamlab qo’yilgandi. Unga binoinan Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarining urushdan keyingi qaror topgan chegaralari mutlaqo daxsiz deya e’lon qilindi. Ush-bu shartnoma ostiga o’sha davrda sobiq SSSR rahbar-lari ham o’z imzolarni qo’yishgan edi. Ammo mana, yillar o’tishi bilan, sobiq ittifoq merosxo’ri Rossiya Fed-eratsiyasi shartnoma bandlarini qo’pol ravishda buzgan holda, suveren Ukraina Respublikasiga bostirib kirdi. Bu harbiy harakatlar garchand, maxsus harbiy amaliyot deb atalotgan bo’lsa-da, keyingi voqealar uni chin ma’nodagi bosqinchilik urushi ekanligini oshkor qilib

qo’ydi. Minglab qishloqlar, yuzlab shaharchalar vay-ron etildi. Millionlab fuqarolar o’z uy-joylarini tashlab, qochqinchiga aylandi. Yuz minglab odamlar qirilib ketdi. Mayib-majruh bo’lganlarning soni undan-da ko’proq. Xitoy rahbari Si Jinpinni yaqinda Moskvaga qilgan tashrifi asnosida rus ma’murlari urush masalasida unga katta umid bog’lashgan edi. Ammo bu safar ham xitoy-liklar o’zlarining pragmatik siyosatlariga sodiq qolishdi, ya’ni Rossiya bilan Ukraina o’rtasidagi urush masalasi-da betaraflik yo’lini tanlashdi. Si Jinpin o’n ikki bandlik tinchlik taklifida har bir mamlakatning suverenlik huquqi va hududiy yaxlitligini hurmat qilishni birinchi shart qilib qo’ydi. Tabiiyki, bu Kremldagilarga ma’qul kelmadi. Nega desangiz, ushbu shart tinchlik shartnomasini imzolash-dan avval Ukraina hududlaridan rus armiyasini olib chiqib ketish lozimligini anglatardi. Unda Rossiya rahbarlarining rus xalqi orasidagi shundoq ham omonat bo’lib turgan obro’sini batamom to’kish bilan barobar bo’lardi.

Bizning nazarinmizda, Xitoy tomoni uchun Rossiya davlatining saqlanib qolishi, ammo u zaiflashib qolgan holda bo’lishi maqsadga muvofiqroq ko’rinadi. Ana shunda, Rossiya Xitoyni G’arb demokratiyasidan ishon-chili himoya qilishi va shu bilan bir vaqtda uni sanoat xo-mashyosi bilan to’kis ta’minlab turishi mumkin. Bu esa xitoyliklar uchun ikki yoqlama ham foydali va ham yo-qimli yechim hisoblanadi. Biroq bu har ikki davlat orasi-dagi hamkorlik abadiy bo’ladi degan ma’noni anglat-maydi. Keksalarimizning yodlarida bo’lsa, 1979-yilda Xitoy arizmasi bir bahona bilan Vietnamga qarshi urush ochgan edi. Aslida bu o’sha paytdagi Xitoy rahbarlar-ining urushdan alamzada bo’lib chiqqan AQSh huku-matiga moyilligining o’ziga xos bir ifodasi bo’lgandi. Mana, endi AQSh va boshqa G’arb davlatlari ko’magida quvvatlanib olgan Xitoy dunyoda yakka hokim bo’lish yo’lida Rossiyadan ham unumli foydalanish rejasini amalga oshirayotgan bo’lsa ajab emas. Chunki shu kunlarda AQSh boshliq G’arb mamlakatlari o’ziga xos siyosiy-ijtimoiy inqirozni boshdan kechirmoqdalar. Bundan foydalanib qolishga shoshilayotgan konservativ kuchlar o’zaro birikib, yagona frontga uyushishga urin-moqdalar. Ertaga siyosiy iqlim o’zgarib, Rossiya bilan hamkorlik Xitoy manfaatlariga to’g’ri kelmay qolsa, ular hech ikkilanmasdan o’zgacha yo’l tanlashlari kundek ravshan. G’arb esa Xitoy gegemonligiga chek qo’yish uchun Rossiyani o’z ittifoqchisiga aylantirish rejasidan hali voz kechgan emas. Bu borada Ukraina kelajak-da Rossiya uchun yaxshi namuna bo’lishi mumkinligi e’tibordan soqit qilinmayapti. Bu esa, albatta, ertaning, balki indinning gapi. Hozircha jahon siyosiy maydoni-dagi yirik davlatlar o’rtasidagi kim kimni yengib chiqadi degan azaliy bahs davom etmoqda.

Shu ma’noda, jahondagi aksariyat rivojlangan demokratik davlatlarning Ukrainani qo’llab-quvvatlayot-ganlari bejiz emas. Hatto Yer kurrasining narigi tomoni-dagi amerikaliklar ham qo’llaridan kelganicha madad berishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kelgusida demokratik adol-atli jamiyat qurishni rejalashtirayotgan xalqlarning orzu-umidlari, qolaversa, liberal G’arb dunyosining ertangi taqdiri ham bugun Ukrainadagi janggohlarda hal bo’layotganligi tobora oydinlashib bormoqda.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

Taniqli olim, yurtimizdagi yirik jarrohlardan biri, jamoat arbobi va sog’liqni saqlash tashkilotchisi, tibbiyot fan-lari doktori, professor, O’zbekiston Fanlar akademiyasi va Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasi akademigi O’ktam Oripov 1927-yil 3-yanvarda tavallud topgan.

XX ASRNING 500 NAFAR OLIMIDAN BIRI

Dunyoda yil odami deya e’tirof etilgan o’zbek olimi haqida so’z

Qayd etish kerakki, O’zbekiston sog’liqni saqlash vazirining birinchi o’rinbosari lavozimida faoliyat ko’rsatgan davrida O’ktam Oripov Orolbo’yida vabo epidemiyasi oqib-atlarini bartaraf etish, Toshkent zilzilasi oqibatida vayron bo’lgan tibbiyot muassasalarini tiklash bo’yicha tashkiliy masalalarni hal etish bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoda ilk ixtisoslashtirilgan tibbiyot bo’limlarini ishga tushirish, ular uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida katta ishlarni amalga oshirdi.



Natijada yurtimizda kardiologi-ya, immunologiya ilmiy-tadqiqot institutlari, qon tomir va torakal jarrohlik, proktologiya, jigar, o’t yo’lari va oshqozon osti bezi jar-rohligi, transplantologiya bo’yicha ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyati yo’lga qo’yildi. Jonkuyar olimning sa’y-harakati tufayli turli ixtisoslikdagi yosh, iqtidorli olim-lardan iborat ulkan jamoa yaratildi. Transplantatsiya immuniteti, mahalliy immunosuppressantlarni yaratish muammolari ishlab chiqildi, klinik transplantologiya va surunkali buyrak yetishmovchiligi bo’lgan bemorlarni davolash tizim-lari tashkil etildi. Natijada 1972-yil 14-sentabrda terminal bosqichida surunkali buyrak yetishmovchiligi bo’lgan bemorda birinchi bo’lib buyrak transplantatsiyasi amalga oshirildi.

bo’lib ishlagan davr alohida o’rin tutadi. Domlanning mazkur darg-o hdagi 13 yillik faoliyati davomida institutda katta o’zgarishlar ro’y berdi. Birinchi navbatda, mod-diy-texnika bazasi, jumladan, poliklinikalar, laboratoriyalar, yotoqxonalar, o’qituvchilar uchun uy-joylar – tibbiyot shaharchasi barpo etildi, poliklinikalar, talaba yotoqxonalari zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi.

Albatta, zahmatkash olimning fidokorona mehnatlari munosib e’tirof etildi. O’ktam Oripov 1974-yilda O’zbekiston Respubli-kasi Fanlar akademiyasining akademigi, 1978-yilda Budapesht tibbiyot universitetining faxriy dok-tori etib saylandi.

Davlatimiz tomonidan olimning mehnatlari munosib baholangan. U “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlandi. Quvonarlisi, 2000-yil-da O’ktam Oripov XX asrning 500 nafar olimidan biri, deb tan olinib, oltin medal bilan taqdirlandi. Noyob mutaxassis, mehribon ustoz O’ktam Oripovich uzoq, ibratli hayot kechirdi. O’zbekiston istiqbolli, tibbiyotimiz ravnaqi uchun ko’p ishlari qildi. Domla 2001 yil 75 yoshga to’lishiga sanoqli kunlar qolganida dunyodan ko’z yumdi. U butun hayotini, borlig’ini ilm-fanga bag’ishladi.

1990-yilda O’zbekiston Res-publikasi Sog’liqni saqlash va-zirligi 1-toifa diabetni davolash uchun oshqozon osti bezi orolcha hujayrasining transplantatsiyasini klinik sinovdan o’tkazishga ruxsat berdi. E’tirofisi, olimning tash-abbusi bilan jahon amaliyotida birinchi marta qorako’l qo’ylarining yangi tug’ilgan qo’zilar donor si-fatida foydalanildi. Natijada insulinga bog’liq qandli diabet bilan og’rigan bemorlarda 150 dan ortiq trans-plantatsiya usulining samaradorligi va istiqbolli tasdiqlandi.

Har bir davrning insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shu-vcili alomalar, buyuk insonlari bo’ladi. Akademik O’ktam Oripov ana shunday orif, fozil alloma edi. Biroq O’ktam akadek fidoyi, zabardast olimning pok nomini abadiylashtirish e’tibordan chetda qolib kelmoganda.

O’ktam akaning mehnat va ilmiy faoliyatida u kishi Toshkent Davlat tibbiyot instituti rektori

Milliy tibbiyotimiz ravnaqi yo’li-da sadoqat bilan mehnat qilgan, umrining so’nggi daqiqalarigacha sha’ni va nomiga dog’ tushirma-gan O’ktam Oripov tashkil etilishi-ga bosh-qosh bo’lgan Toshkent tibbiyot akademiyasiga nomi berilsa, ayni muddao bo’lardi.

Zayniddin NORMAN,
O’zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e’lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO’LSA...

Samarqand shahridagi "PERFECT BURGER" mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 308951512) va "FAMILY BURGERS" mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 308294246) "BURGER AND CO" mas’uliyati cheklangan jamiyatiga (STIR: 305333602) qo’shilmoganda.

"BURGER AND CO" mas’uliyati cheklangan jamiyati "PERFECT BURGER" mas’uliyati cheklangan jamiyati va "FAMILY BURGERS" mas’uliyati cheklangan jamiyatining barcha huquq va majburiyat-lari bo’yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da’volar gazetada e’lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko’chasi, 13-uy.

Toyloq tumanidagi "LAZER INVEST" mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 303228607) o’z ustav fondini 229 446 000 (ikki yuz yigirma to’qqiz million to’rt yuz qirq olti ming) so’mdan 44 820 000 (qir-qir to’rt million sakkiz yuz yigirma ming) so’mga ka-maytirilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladi-gan barcha da’volar gazetada e’lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Toyloq tumani A.Qodiriy ko’chasi, 19-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ul-lanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Raximov Jahongir Mu-surmonovichga (2019-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Ashurova Di-lafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko’chasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ul-lanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo’ra-qulovich notarial idorasida marhum Tashmirzayev Xusanga (2020-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Muhammadiyev Farhod Jo’raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko’chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shuku-rullayevna notarial idorasida marhum Barchevskiy Viktor Vasilevichga (2009-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochil-moqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Nar-zullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko’chasi, 5/1-uy.

Past Darg’om tumanida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Ahatov O’lmas To’rayevich notarial idorasida marhum Shukurov Abdusamat Kazakovichga (2018-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Ahatov O’lmas To’rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Past Darg’om tumani Juma sha-harchasi, Nodirabegim ko’chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Ber-diqulovich notarial idorasida marhum Axmedjanov Boltaga (1997-yil 15-mayda vafot etgan) hamda Axmedjanova Lyubtaga (1999-yil 10-fevralda va-fot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning

Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko’chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdi-qulovich notarial idorasida marhum Rozikov Xalimga (1989-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko’chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Ber-di-qulovich notarial idorasida marhum Negmatova Inobatga (2005-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko’chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Himmatov Baxtiyor Bahodirovich notarial idorasida marhum Oman-ov Shavkatga (2021-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Himmatov Baxtiyor Bahodirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo’li ko’chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Gaynutdinov Shamil

Gimadovichga (2022-yil 12-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etish-larini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yu-sufovich notarial idorasida marhum Xaydarov Fari-dun Irkinovichga (2020-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug’diyona mas-kani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Baxronov Azamkulga (2020-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Sergachyova Nina Alekseyevnaga (2016-yil 5-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Be-runiy ko’chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirov-na notarial idorasida marhum Urunova Mutabarga (2020-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo’rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so’raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko’chasi, 108-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand davlat tibbiyot institutidan 2007-yil-da Maxmudov Axmat Davurbayevich nomiga beril-gan "Umumiy amaliyot vrachi" guvohnomasi yo’qol-ganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi "KAMALAK" MChJ nomidan ishonchno-ma asosida Kosimov Umid Murotovich va Yakubova Nilufar Shavkatovnalr o’rtasida 2022-yil 20-iyulda Samarqand shahri Turkiston ko’chasi, 169-"B" uy 18-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahri-da xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notari-us Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida tasdiqlanib, 3583 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchi-dagi nusxasi va ushbu kvartiraning kadastr hujjatlari to’plami yo’qolganligi sababli bekor qilinadi.

Navoii viloyati Karmana tumanidagi "ASLAM BARAKA BUSINESS" mas’uliyati cheklangan jamiya-tining (STIR: 305384698) dumaloq muhri va burchak tamg’asi yo’qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!
Fuqaro Sobirov Tolmas Odil o’g’lining haydovchilik guvohnomasi (BC toifali, AB seriyali, 701235 raqamli, 2010-yil 24-dekabrda berilgan) Urgut tumani hudud-da tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so’raymiz.

Telefon: +99894-288-91-98.

RAMAZON – MAG'FIROT OYI

Yaratganga beaded hamdu sanolar bo'lsin, barchamiz intizorlik bilan kutgan Ramazon oyi boshlandi. Oylarning sultoni, sayidi bo'lgan bu oyda Qur'oni karim nozil bo'lgan, ming kechadan xayrli bo'lgan Qadr kechasi mavjud.



O'zbekiston musulmonlari idorasining 2023-yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 23-mart kuniga to'g'ri kelishi haqidagi axboroti asosida 21-mart kuni davlatimiz xarab tomonidan ushbu qutlug' o'yni munosib o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Qarorda hokimliklar va mutasaddi idoralarga Ramazon o'yni milliy an'ana hamda qadriyatlariga mos va munosib tarzda o'tkazish choralarini ko'rish, hududlarda bu muborak o'yni mazmun-mohiyatida mujassam bo'lgan odamiylik, inson sha'nini ulug'lash, yaxshilik va mehr-saxovat kabi fazilatlarini namoyon etadigan, bugungi tinch va osoyishta hayotimizni qadrlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish belgilandi. Ushbu talablardan kelib chiqib, viloyati-

mizda ham muborak Ramazon o'yni munosib o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'riladi.

22-martdan viloyatimizdagi jome masjidlarda taroveh namozini ado etishga kirishildi. Buning uchun masjidlarimizda mo'min-musulmonlarga barcha shart-sharoit yaratildi. Shuningdek, Ramazon oyi davomida 166 ta masjidida Qur'on o'qilishi belgilanib, bu amal O'zbekiston musulmonlari idorasiga belgilangan tartibda o'tkazilmoqda. Ya'ni, xatmonalarni bir vaqtda boshlandi va bir vaqtda – Qadr kechasida yakunlanadi.

Ramazon oyi gunohlar kechiriladigan mag'firat oyi, odamlar bir-biriga mehr-oqibati yanada mustahkam bo'ladigan oy sanaladi. Ushbu qutlug' damlarda, ayniqsa, ehtiyojmand oilalar, bemorlar, keksalar, yetim-esiralar holiday xabar olib, ularga muhrvat ko'rsatsak, savobli amallarimiz yana ham bisyor bo'ladi.

Shu kunlarda barcha mahallalarda, ko'plab xonadonlarda iftorlik marosimlari o'tkazilib, ro'zadorlar uchun dasturxon yozilmoqda. Savob umidida qilinayotgan bu tadbirlarni isrofgarchiliklarsiz, dabdabalardan xoli tarzda o'tkazish diniy nuqtai nazaridan ham, insoniylik jihatidan ham to'g'ri bo'ladi. Ushbu marosimlarni kamchiqim qilib o'tkazgan holda mahallamizdagi, atrofigimizdagi yordamga muhtoj kishilarga moddiy va ma'naviy ko'mak bersak, buning savobi yanayam katta bo'ladi, insho'alloh.

Zayniddin ESHONQULOV, viloyat bosh imom-xatibi.

"Guliston" jurnalida avar shoiri Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" nomli asari chop etilgan damlardan uni qalbiga yaqin olgan edim. Jurnalning navbatdagi sonini orziqib kutardim. Oddiy voqealar, sodda tasvirlar, tanish manzaralar, otameros udumlar bayoni va ulardan kelib chiqadigan falsafalar hayratga solardi meni.

Yulduzlarni ichgan, quyoshni quchgan shoir

Bu asar Vatanga muhabbat tuyg'ularini kamolga yetkazardi. Tushunarli va sevib o'qilardi. Avar xalqining oriyatli, jo'mard odamlari, fidoyi, mehribon onalari ko'z o'ngimizda jilolanardi. Yillar o'tgan sari Rasul Hamzatov kichkina mamlakatini, nisbatan kam sonli xalqini naqadar kuchli muhabbat bilan sevgan katta ijodkor ekanini angladim. O'z Vatani shunday otash bo'lib seva olgan odam haqiqiy shoir ekanini tushundim. Uni izlab o'qidim. She'rlari tufayli tiniq buloqlaridan oqqan suvlar bilan osmonni, yulduzlarni, quyoshni ichganiga guvoh bo'ldim. Buyuk onaga, sevgilisiga iqrorlarini maza qilib o'qidim.



O'tgan asrning saksoninchi yillari boshida men uchun qo'l yetmas yulduz kabi tuyulgan shoir rafiqasi bilan Samarqandga tashrif buyurdi. A.Chexov nomidagi rus drama teatrida xalqar do'stligiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Minbarda turli yurtlardan kelgan shoir, yozuvchilar, Samarqandning obkom sekretari, adabiyotning fidoyi targ'ibotchisi, yosh ijodkorlarining homiysi Bektosh Rahimov va Rasul Hamzatov ham savlat to'kib o'tirishardi. Zal samarqandliklar bilan to'la edi. Meni ham minbarga taklif qilishdi. Rasul Hamzatov she'r o'qigan minbardan turib she'r o'qish juda hayajonli edi. Ovchining qopqoniga tushgan ohu kabi yuragim dukillar, vujudim titardim. O'zimni zo'rg'a bosdim, shoirga va xalqqa yengil ta'zim qildim. She'rimni o'qidim. She'rim meni ijolatlak domidan qutqardi, birdan boshqa odamga aylandim. Qarsaklardan o'zimga keldim. Qarasam, minbardagilar ham, men ixlos qo'ygan shoir ham qarsak chalayotgan ekan.

Shu payt odamlar orasidan besh yoshli, sochlari patila, atlas ko'ylakli (mening egnimdagi atlas bilan bir xil) qizcham Surayyo qo'lidagi bir dasta rayhon bilan men tomonga yugurib kelayotganini ko'rdim. Hayajonda gulni olibman-u, bolamni bag'rimga bosishdan uyulibman. Men qilganam ishni Rasul shoirning rafiqasi qildi. (albat, erining ishorasi bilan) qizchamni bag'riga bosib, yuzlaridan o'pdi. Qizimning qo'liga kim gul berdi, kim sahnaga yo'ladi, bilmay qoldim. Ammo men yana bir xato qildim: qo'limdagi Samarqandiy rayhonlarni shoirning rafiqasiga

tutqazmay, Surayyoni yetaklab, sahnadan tushib ketdim...

Shoir bilan ikkinchi uchrashuvimiz oradan 14 yil o'tib, Pokistonda ro'y berdi. Pokiston bosh vaziri Benazir Bhutto yurtida madaniyat kunlarini o'tkazdi. Yer yuzi bo'yicha har bir mamlakatdan vakillar borishdi. O'zbekistonliklar guruhida men ham bor edim. Yig'ilishlar, ma'ruzalar, sayru sayohatlar bo'ldi. Hammasi bir-biridan ajoyib. Eng qizig'i, oxirgi kungi, yurt yetakchisi ziyofat beradigan kechada bo'ldi.

Katta maydon o'tovlar bilan bezatilgan, oshxonalar ham dalaga ko'chib chiqqan, har joyda turli taomlar hozirlangan edi. Bir joylarda gulxanlar yoqilgan, mushoiralar tashkil qilingandi. Hamma erkin sayr qilar, bu holni ko'kda yulduzlar berilib tomosha qildirdi.


Ne ko'z bilan ko'rayki, Rasul Hamzatov rafiqasi bilan ro'paramda turardi. Shoshib, suyunib salomlashdim. O'zbekistondan, Samarqanddan ekanimni aytdim. Shoir Samarqandni yaxshi xotiralari bilan esladi. Ikkovlari ham eski qadrdonini ko'rgan kabi yelkamdan quchishdi.

Shoir menga rus tilida nashr qilingan yangi kitobini dastxati bilan sovg'a qildi. Qo'limda ulug' shoirga hadya qilishga arziguqlik kitob ham yo'q edi... Qarzdor bo'lib qoldim. Xuddi qizalag'imni o'pgan kabi, er-xotin ikkalasi mening ham peshonamdan o'pib, odamlar orasiga singib ketishdi...

Xosiyat BOBOMURODOVA, shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Inson ma'naviy olamini yuksaltirish, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. U odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go'zal his-tuyg'ularni in'om etadi. Teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat va ma'rifat maskanidir.

YANGI SPEKTAKLLAR SAHNALASHTIRILYAPTI



1961-yilda Avstriyaning Vena shahrida UNESCO huzuridagi Xalqaro teatr institutining IX kongressida 27-mart — Xalqaro teatr kuni deb ta'sis etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning 100 dan ziyod mamlakatida ushbu sana teatr san'ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Viloyatimizda ham bu sana har yili ko'tarinki kayfiyatda kutib olinadi.

Xalqaro miqyosdagi teatr kuni - bu teatr jamoalari, umuman, har bir teatr aktyorining ezgulik yo'lida qilayotgan ijodiy mehnatlarining e'tirofi deyish mumkin, - deydi viloyat musiqali drama teatri direktori Iskandar Sul-tonov. - Keyingi yillarda mamlakatimizda ham madaniyat va san'atni, xususan, teatni rivojlantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga

aylandi. Bu o'zgarishlarni teatrimiz misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Qiymati 87 milliard so'mlik loyiha doirasida teatr binosi ta'mirlandi. Tashqi va ichki pardoqlash ishlari, isitish, sovutish, havo almashtirish, suv, kanalizatsiya tizimlari to'liq rekonstruksiya qilindi.

Bugun binoda teatr ijodkorlariga samarali ijod qilishi, tomoshabinlarga esa madaniy hordiq olishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Joriy yilgi repertuarimiz ham shunga munosib. Bir nechta spektakllar sahnalashtirilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etilyapti. Xususan, "O'jar qaynona", "Ayollarni asrang" nomli spektakllar shular jumlasidan.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy teatrnii ibratxona deya ta'riflagani bejiz emas. Teatr har bir davrda insonga hayotiy saboq beruvchi jonli vositadir.

S.MARDIYEV.

"SERIALLARni

Aks-sado

OILA DAVRASIDA KO'RIB BO'LMAY QOLDI.."

Yaqinda "Zarafshon" gazetasi hamda uning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida "Milliy seriallar: Ma'naviyatimiz uchun malhammi yoki zahar?" sarlavhasi ostida maqola e'lon qilindi. Unda xususan, "milliy" brendi ostida chiqayotgan aksariyat serial va kinolarning saviyasi pastligi, tarbiyaviy ahamiyatsizligi, aksincha, ularda ma'naviyatsizlik, fahsh va boqibeg'am hayot tarzi targ'ib qilinayotgani tanqid ostiga olingan.

Aytish joizki, ayni mavzu mushtariylarimiz orasida ham keng muhokamalarga sabab bo'ldi. Kimdir ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizda, boshqalar qo'ng'iroq qilib, muammo yuzasidan o'z munosabatini bildirdi. Ularning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilishni joiz deb bildik.

(Matnlar ma'nosi o'zgartirilmagan holda tahrir qilingan).

Nurbek XUDAYAROV:

- Oila davrasida ko'rib bo'lmaydi seriallarimizni. Asabni buzadi, odamlarning, yoshlarning ongini zaharlaydi. Kimdir televideniyaqiga berilayotgan kino va seriallarni nazorat qilishi kerak emasmi? Ulardagi turk seriallari ham xuddi shunday mazmunda - birining xotini boshqasi bilan yuradi, ikkinchisining farzandi eridan emas. Bora-bora bu illatlar ham biz uchun oddiy holga aylanmoqda.

"MDM" nikli kuzatuvchi:

- O'g'lim maktabda 3-sinflarga dars beradi. O'quvchilaridan "Kelajakda kim bo'lasizlar?", deb so'ragan ekan, qizlarning hammasi salohchi, tirmoq bo'yagich singari kasblarni aytdi. Ulardan biri "Katta bo'lsam, men ham labimni botiks qildiramani", degan emish. Yo tabva, qayoqqa qarab ketyapmiz?

Komila KOMILOVA, pastdarg'omlik kuzatuvchi:

- Seriallarni hayotiy voqealarga asoslangan, deyishadi. Amalda bunday emas. Oddiy maishiy muammolarni bu qadar bo'rttirib, xalqimizni yomon qiyofada ko'rsatish kerakmi-kan? Saviya masalasiga kelsak, ularda rol ijro etayotgan aktyor aktrisalarda mahorat yo'q. Xususan, aktrisalarga faqat tashqi go'zallig' uchun rol berishgan, degan fikr paydo bo'ladi. Yana, ularning asosiy qismi yuzini plastik operatsiya qildirgani, labini shishirgani yaqqol ko'rinib turadi. O'lalarni uchin ulardan nima naf? Serial kimlarningdir "reklama"si uchun xizmat qilmasligi kerak.

Farog'at SHODIYOROVNA:

- Seriallar haqida gap ketganda milliy seriallarni chet el seriallariga qiyoslash boshlanadi. Bu noto'g'ri. Xorijliklarning mentaliteti, yurish-turish me'yorlari boshqa. O'zimizning seriallar xalqimizga mos bo'lishi kerak. Hozir ular faqat asabni buzadi.

"Hijron" nomli o'zbek seriali berilayotgan ekan, erinmay bir hafta tomosha qildim. Mazmuniga ko'ra, undagi 4-5 nafar dugona ikkinchi xotin emish, yana ularning ersiz dugonalari shu ikkinchi xotin bo'lgan dugonalarning erlarini



MILLIY SERIALLAR: MA'NAVIYATIMIZ UCHUN MALHAMMI YOKI ZAHAR?

"ovlash" bilan ovora. O'lalarni buzadigan, qarindoshlarni bir-biridan ajratadigan serial-ku bu. Ilgari yaxshi seriallar olingan. Masalan, "Bobur", "Shaytanat", "Zanjir", "Ko'ngil ko'challari", "Charxpalak", "Jyda guli"ni tomosha qilish uchun intiq bo'lardik. Hozirgilari talabga javob bermaydi.

Sardor:

- Madaniyat yo'q, fahsh targ'ib qilinmoqda. Umuman serial ko'rib bo'lmay qoldi. Shularni tasvira olayotgan rejissyorlarning hammasini qaytadan tarbiyalash kerak.

Komron QURBONBOEV, surxondaryolik kuzatuvchi:

- Maqola bilan tanishib, unda muammo o'ld ba'zi masalalar tilga olinmay qolganini payqadim. Masalan, zo'ravonlik. Shaxsan men kino va seriallarimizdagi zo'ravonlik aks etgan lavhalar yoshlarda mushtumzo'rlikka havas uyg'otadi, degan fikrdaman. Ularda jinoyat qilish va qonuniy jazodan qochish bo'yicha "master-klass" o'tilmayaptimi? Qaysi serialni ko'rmang, mushtumzo'rlar zo'r yashaydi, qonunga itoat qilgan, vijdonini sotmaganlar esa xokisor. Bu g'oyalari jamiyatimizga zarar yetkazadi.

Sadoqat OQILOVA:

- Seriallar yomon, farzandlarimizning ongini buzayapti, deb aytaveramiz. Ko'rmanglar shu serialni. Farzandlarimizning ham nazorat qiling. Masalan, men umuman serial ko'rmayman. Chunki hech qanday foydasi yo'q ularning. Bolalarimga ham ruxsat bermayman. Bo'sh vaqtimda kino ko'rishim mumkindir, unda ham faqat jahon kinolarini.

O'qing, qiziq

Rossiya va AQShni 4 kilometr masofa ajratib turadi. Rossiya va AQSh o'rtasidagi masofa 4 kilometr ekanligini juda kam odam biladi. Rossiyadan Amerikaning 49-shtatiga cha bo'lgan masofa (Alyaska) Bering bo'g'ozining kengligi (86 kilometr) deb aytishadi. Biroq bunday emas.

1867-yildagi Alyaska va Aleut orollarini sotish to'g'risidagi bitimga muvofiq, mamlakatlar o'rtasidagi chegara Rossiyaning Ratmanov va Amerikaning Kruzenshtern orollari o'rtasidan o'tadi. Orollarning boshqa nomlari Di-omida, kattasi Rossiyaga, kichigi esa AQShga tegishli.

Ushbu orollar o'rtasida nafaqat davlat chegaralari, balki xalqaro sana o'zgarishi liniyasi ham o'tadi.



Italiya Yerning 0,5 foizini egalaydi. Insoniyatning 0,83 foizi Italiyada istiqomat qiladi. Nodir bioklimatik sharoitlari tufayli bu yarimorol bioxilma-xillik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Bu yerda 7000 turdagi sabzavot, 58000 turdagi hayvonot, 1800 tur uzum navi, olmaning 997 turi (butun dunyoda 1227 olma turi bor), bug'doyning 140 turi yetishtiriladi.

Italiya dunyo madaniy merosining 70 foiziga egalik qiladi, qolgan 30 foizi butun sayyora bo'ylab tarqalgan.

Kanada hindcha so'z bo'lib, "Katta qishloq" deb tarjima qilinadi. Kanada farovonligi yuqori darajada rivojlangan davlatlardan biri hisoblangani bois bu nomlanish unga mos kelmaydi.

Kanadada 2 milliondan ortiq katta va kichik ko'llar to'plangan bo'lib, ularda dunyodagi toza ichimlik suvining 20 foizga yaqini mavjud. Ko'llar shu qadar ko'pki, ularning soni to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q.

Nepal - bayrog'i to'rtburchak yoki to'g'riburchak bo'lmagan yagona mamlakat.

Xitoy yer yuzidagi eng katta dinsiz mamlakatdir. Amerikadagi Gallup jamoatchilik fikri instituti tomonidan 2015-yilda o'tkazilgan so'rovnoma mamlakatning 90 foiz aholisi qat'iy ateistlar yoki dinsiz bo'lganliklarini ko'rsatdi.

Dunyoning deyarli 200 mamlakati tarixi tahlili shuni ko'rsatdiki, turli yillarda inglizlar bostirib kirmagan atigi 22 ta davlat mavjud.

Inglizlar tomonidan bosib olinmagan davlatlar: Andorra, Belorussiya, Boliviya, Burundi, Markaziy Afrika respublikasi, Chad, Kongo, Gvatemala, Kot-d'Ivuar, Qirg'iziston, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Mali, Marshall orollari, Monako, Mo'g'uliston, Paragvay, San-Tome va Prinsipi, Shvetsiya, Tojikiston, O'zbekiston, Vatikan.

Bahora MUHAMMADIYEVA tayyorladi.

MATBUOT UYI Zarafshon Samarqandskiy Vestnik

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 689 nusxada chop etildi. Buyurtma 159. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2. Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61. MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV. Navbatchi: X.ERNAZAROVA. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV. Bosishga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X 9 772010 667009 Sotuvda narxi kelishilgan holda